



UDK 37.016:811'243-028.31:159.955

Xalida AVILOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: Khalida72@mail.ru

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, PhD Sh.Akbarova taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF AUTHENTIC TASKS BASED ON METACOGNITIVE DOMINANCE IN DEVELOPING THE READING COMPETENCE OF B2-LEVEL STUDENTS

Annotation

At present, the development of communicative competence has become one of the primary goals in the process of foreign language teaching. One of the essential components of communicative competence is reading competence, which enables language learners to receive, analyze, and interpret the information through written texts. This article focuses on the role of metacognitive strategies in improving reading competence and examines the effective application of these strategies using authentic tasks in foreign language education.

Key words: Reading competence, metacognitive strategies, authentic tasks, authentic reading.

ЗНАЧЕНИЕ АУТЕНТИЧНЫХ ЗАДАНИЙ, ОСНОВАННЫХ НА МЕТАКОГНИТИВНОЙ ДОМИНАНТНОСТИ, В РАЗВИТИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ УРОВНЯ В2

Аннотация

В настоящее время развитие коммуникативной компетенции становится одной из важнейших целей в процессе обучения иностранным языкам. Одним из составных компонентов коммуникативной компетенции является компетенция чтения, которая позволяет изучающим язык воспринимать, анализировать и интерпретировать информацию через письменный текст. Данная статья посвящена вопросам совершенствования компетенции чтения с использованием метакогнитивных стратегий, а также эффективному применению этих стратегий используя аутентичных заданий в процессе обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: Читательская компетенция, метакогнитивные стратегии, аутентичные задания, аутентичное чтение.

B2 DARAJADAGI TALABALARNING O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV DOMINANTLIKKA ASOSLANGAN AUTENTIK TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish eng muhim maqsadlardan biri bo'lib bormoqda. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri o'qish kompetensiyasi bo'lib, u til o'rganuvchilarga yozma matn orqali axborotni qabul qilish, tahlil qilish va interpretatsiya qilish imkonini beradi. Ushbu maqola o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda metakognitiv strategiyalar va ulardan autentik topshiriqlar yordamida til ta'limida unumli qo'llash masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'qish kompetensiyasi, metakognitiv strategiyalar, autentik topshiriq, autentik o'qish.

Kirish. Duniyodagi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida chet tilida o'qish ko'nikmalarining rivojlantirishga bo'lgan zarurat yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, B2 darajadagi til o'rganuvchilar uchun o'qish jarayoni matn mazmunini tushunish bilan cheklanmay, balki matndagi asosiy g'oya, muallif pozitsiyasi, yashirin ma'no hamda diskursiv elementlarni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Til ta'limida o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda o'qish strategiyalardan oqilona foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, o'qish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida metakognitiv strategiyalarining ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari, ushbu strategiyalarning foydali ekanligini ko'rsatadi. Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayonini ongli ravishda boshqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, autentik o'qish materiallaridan foydalanish o'quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarga moslashuvini ta'minlaydi hamda ularning motivatsiyasini oshiradi. Shunday qilib, metakognitiv dominantlikka asoslangan autentik

topshiriqlarni qo'llash B2 darajadagi talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda muhim metodik yondashuv sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Avvalo metakognitiv strategiyalarga to'xtalib o'tsak, metakognitsiya (metacognition) tushunchasi dastlab psixologiya fanida shakllangan bo'lib, u o'quvchilarning o'z fikrlash jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu termin amerikalik olim J.Flavell tomonidan 1979-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, "metakognitsiya shaxsning o'z kognitiv jarayonlari haqida bilimga ega bo'lishi va ularni nazorat qilish qobiliyati" deya ta'riflanadi [3]. Olim keyinchalik bu tushunchani yanada rivojlantirib, metakognitsiyani metakognitiv bilim (metacognitive knowledge): shaxsning o'z o'rganish jarayoni haqida bilimi, hamda metakognitiv nazorat va boshqarish (metacognitive regulation): o'qish yoki fikrlash jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati kabi ikki asosiy komponentga ajratadi.

Chet tili o'qitish metodikasi sohasida metakognitiv strategiyalarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'plab

olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, N.Anderson o'z tadqiqotlarida metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning o'qish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashini va o'qib tushunish darajasini oshirishini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, u o'qish jarayonida strategik yondashuvni qo'llagan o'quvchilar matni chuqurroq tahlil qila olishlarini bayon etadi.

Demak, metakognitiv strategiyalar o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim metodik vositalardan biri hisoblanadi va zamonaviy til ta'limida talabalarning o'z o'qish jarayonini ongli ravishda boshqarishi, nazorat qilishi va baholashi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi.

Bir qator olimlar metakognitiv strategiyalarni autentik matnlar bilan ishlash orqali samarali rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Jumladan, tadqiqotchi A.Karrellning fikriga asosan: "Muvaffaqiyatli o'quvchilar

Jadval 1

Autentik matnlarning asosiy turlari

	Matn turi	Namuna	Xususiyati
1.	Axborot (informatsion) matnlar	gazeta maqolalari yangiliklar xabarlari ilmiy maqolalar statistik hisobotlar	Rasmiy va axborot uslubidagi til birliklarini o'rganish imkonini beradi.
2.	Shaxsiy kommunikativ matnlar	e-mail xatlar shaxsiy xatlar blog yozuvlari ijtimoiy tarmoq postlari	Norasmiy uslub, idiomalar va zamonaviy leksik birliklarni o'rganish imkonini beradi.
3.	Media va reklama matnlari	reklama matnlari turistik broshyuralar posterlar marketing materiallari	Tilning pragmatik va ta'sir ko'rsatuvchi (persuasive) xususiyatlarini o'rganishda muhim hisoblanadi.
4.	Kundalik hayot matnlari	restoran menyusi transport jadvali xaritalar foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar do'kon chek va kvitansiyalari	Real hayotda tez-tez uchraydigan funksional materiallar bo'lib, tilni hayotiy vaziyatlarda o'rganish imkonini beradi.
5.	Adabiy matnlar	hikoyalar roman parchasi she'rlar dramalar	Tilning madaniy va lingvistik xususiyatlarini o'rganish imkonini yaratadi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan autentik materiallar til o'rganuvchilarga tabiiy grammatik va leksik birliklar, shuningdek til bilan birga madaniy kontekstni ham o'rganish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli zamonaviy metodikada bu turdagi aslyatdagi matnlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mavzuga aloqador olim va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlarini nazariy tahlilga tortish maqsad qilinib, unda bir qator ilmiy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari adabiyotlar tahlili metodi asosida o'rganildi. Xususan, o'qish kompetensiyasini rivojlantirish, metakognitiv strategiyalar hamda autentik topshiriqlardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. B2 darajadagi talabalarning o'qish kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida metakognitiv strategiyalarni autentik topshiriqlar bilan integratsiya qilish samarali natijalar beradi. O'qishdan oldingi bosqichda metakognitiv strategiyalar asosida talabalardan matn mazmunini taxmin qilish, asosiy savollarni aniqlash yoki o'qish maqsadini belgilash kabi topshiriqlarga jalb etish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan kognitiv tayyorgarligini oshiradi.

Metakognitiv o'qish strategiyalarini tizimli ravishda tadqiq qilgan olimlardan yana biri R.L.Oksford til o'rganish strategiyalarini tasniflab, metakognitiv strategiyalarni rejalashtirish (planning), nazorat qilish (monitoring) va

matni o'qish jarayonida oldindan taxmin qilish, asosiy g'oyani aniqlash va tushunishni tekshirish kabi metakognitiv strategiyalarni faol qo'llaydi" [2]. Shuning uchun autentik matnlar bilan ishlashda talabalarga strategik savollar va reflektiv topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, autentik materiallardan foydalanish ham til o'qitish metodikasining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. J.Harmer autentik materiallar tilning real kommunikativ muhitdagi qo'llanishini namoyon etishini hamda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishini ta'kidlaydi [6]. Autentik matnlar o'quvchilarga nafaqat til birliklarini, balki madaniy kontekstni ham o'rganish imkonini beradi. Metodika sohasining yetuk namoyondalaridan J.Harmer, D.Nunan va H.Gilmore autentik matnlarni bir necha guruhlariga ajratadi (1-jadvalga qarang).

baholash (evaluating) bosqichlariga ajratadi [5]. Uning ta'kidlashicha, aynan autentik topshiriqlar talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirib, strategik o'qish jarayonini rivojlantiradi. Autentik topshiriqlarning xususiyatlariga to'xtalib o'tsak, bu toifadagi topshiriqlar talabalarga real hayotdagi kommunikativ faoliyatni taqlid qiladigan yoki unga juda yaqin bo'lgan vazifalarni bajarish orqali tilni o'rganish imkonini yaratadi. Bunday topshiriqlarda talabalar tilni nafaqat grammatik mashq sifatida emas, balki ma'lumot olish, fikr bildirish, muammoni hal qilish yoki qaror qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. J.Harmerning fikriga asosan autentik topshiriqlar o'quvchilarga tilni haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi [8]. Real hayotga yaqinlik, kommunikativlik, kontekstga asoslanganlik, talabalarning faol ishtiroki, ma'no ustunligi va ko'nikmalar integratsiyasi bu turdagi topshiriqlarning afzalliklari hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, gazeta maqolalari, bloglar, reklama matnlari va ilmiy-ommabop maqolalar bilan ishlashda metakognitiv strategiyalarni qo'llagan holda autentik topshiriqlardan foydalanish o'z samarasini beradi. Bu jarayonda ayniqsa talabalar "Men bu matni tushunyapmanmi?", "Qaysi strategiya menga yordam berdi?" kabi reflektiv savollarni berib borishi o'z o'qish jarayonini nazorat qilishga va baholashga yordam beradi. Quyida metakognitiv strategiyalar yordamida autentik topshiriqlardan misollar keltirishni joiz deb bildik:

1. Prediction task (rejalashtirish strategiyasi). Bu topshiriqda talabalarga bir qancha gazeta maqolalari sarlavhasi beriladi va ulardan maqola nima haqida, shuningdek, kim uchun yozilgan kabi savollar so'raladi. Mazkur topshiriq talabalarning oldindan taxmin qilish strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida mashg'ulot davomida foydalanish uchun savollardan namuna keltirilgan:

What do you think the article will discuss?

Who is the target audience of the article?

What is the author's stance?

2. Reading Diary (O'qish kundaligi). Mazkur topshiriqdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarning monitoring strategiyasini rivojlantirishdan iborat bo'lib, talabalar roman yoki hikoyani qismlarga ajratgan holda o'qib, quyidagi jadvalni to'ldiradi (2-jadvalga qarang).

Jadval 2

Reading Diary (O'qish kundaligi)

Chapter	What happened?	What I didn't understand.	How I found it out.
Chapter 1			Ex: Through context
Chapter 2			
Chapter 3			
Chapter 4			
Chapter 5			

Bu topshiriq talabalarga roman, hikoya yoki drama o'qishda o'z tushunish jarayonini kuzatish imkonini yaratib, maqsadli nazorat olib borish orqali mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini takomillashtiradi.

3. Monitoring task (nazorat strategiyasi). Mazkur topshiriqda talabalar matnini

o'qib borar ekan, jadvalga paragraflarning asosiy mazmunini to'ldiradi va uni to'liq tushungan yoki tushunmaganligini belgilab boradi. Bu orqali talabalar nazorat qilish strategiyalarini takomillashtirib boradi (3-jadvalga qarang).

Jadval 3

My understanding

Paragraph	Main idea	Do I understand it?
1		Yes / No
2		Yes / No
3		Yes / No
4		Yes / No

4. Reflection task (baholash strategiyasi). Talabalar matn o'qilgandan so'ng savollarga javob beradi, natijada metakognitiv refleksiya shakllanishiga erishiladi.

Which strategy helped you understand the text?

What part of the text was difficult?

Would you change your reading strategy next time?

Matn o'qishdan keyingi bosqichda esa metakognitiv refleksiya muhim rol o'ynaydi. Talabalar matn mazmunini umumlashtiradi, muallifning pozitsiyasini tahlil qiladi, hamda o'z fikrini bildiradi. Bu jarayon o'qish kompetensiyasining yuqori darajada shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu topshiriq autentik materiallardan foydalanish orqali

tashkil etilsa o'quvchilarga tilning real kommunikativ kontekstini tushunishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Demak, metakognitiv strategiyalar B2 darajadagi talabalarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. H.Flavell, P.Karrell va R.Oksford tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'qish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash kabi metakognitiv strategiyalar orqali matn chuqurroq tushunadi. Ayniqsa autentik matnlardan keng foydalangan holda tashkil etilgan autentik topshiriqlar talabalarning mustaqil o'qish, tanqidiy fikrlash va strategik yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- Anderson, N. J. (2002). The role of metacognition in second language teaching and learning. Washington, DC: ERIC Digest.
- Carrell, P. L. (1989). Metacognitive awareness and second language reading. *Modern Language Journal*, 73(2), 121–134.
- Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
- Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. *Language Teaching*, 40(2), 97–118.
- Grabe, W. (2009). *Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.
- Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. New York: Newbury House.
- Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Harlow: Pearson Education Limited.